

ADABIYOT FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Jo'rayev Oybek Sherali o'g'li,
Malayziya International University
College Sedaya ta'lim magistranti
jorayevoybek265@gmail.com

Otajanova Manzura Omanboyevna,
filologiya fanlari doktori, professor
Renessans-ta'lim universiteti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18230850>

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyot o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvning o'rni va bu usulning an'anaviy uslubdan farqli hamda ijobiy jihatlariga to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari adabiyot o'qitish jarayonida o'quvchining markaziy ro'l o'ynashi va buning afzalliklari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, metodika, adabiyot, innovatsion o'qitish jarayoni, adabiyot, o'quvchi va yaratuvchanlik, an'anaviy uslub, xorijiy tajriba.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль инновационного подхода в процессе преподавания литературы, а также его отличия и преимущества по сравнению с традиционными методами. Кроме того, уделено внимание центральной роли учащегося в образовательном процессе и преимуществам такого подхода.

Ключевые слова: образование, методика, литература, инновационный процесс преподавания, литература, ученик и креативность, традиционный метод, зарубежный опыт.

Abstract. In this article, the role of the innovative approach in the process of teaching literature and its differences and advantages compared to the traditional method are discussed. In addition, attention is given to the central role of the student in literature teaching and the benefits of this emphasis.

Key words: education, methodology, literature, innovative teaching process, literature, student and creativity, traditional method, foreign experience.

Kirish. "Adabiyot yashasa – millat yashar" [3]. Darhaqiqat, Cho'lpon aytgan ushbu so'zlar tagida olam-olam ma'no mujassamdir. Bugun ta'lim tizimimizda adabiyot o'qitilishi kechagidan muhimroq, keragidan ko'ra zarurroqdir. Ma'naviy jang ketayotgan bir jabhada adabiyotdek ulkan kuch, Qahhor tabiri bilan aytganda "Atomdan kuchli qurol hisoblangan adabiyot" [4] bilan bola qalbiga kirib borish, uni sofligini, asliy tuyg'ularini saqlash lozimdir. Shu sababli ham adabiyot atamasi millat bilan chambarchas bog'liq tushuncha sifatida baholanadi.

Ta'lim tizimida, aynan adabiyot o'qitilishi har bir millatda o'ziga xos tarzda farqlanadi. Maktab ta'lim tizimida faqat milliy adabiyot emas, balki jahon adabiyoti ham o'qitilishiga qaramay, har bir davlatda maxsus yondashuv va metodlar qo'llaniladi va bu usullar mintalitet, fikrlash jarayonidan kelib chiqib ishlab chiqiladi. Biroq umumiyliklar ham mavjud bo'lib, o'qitish jarayonida boshqa rivojlangan xalqlar metodikasidan ham andoza olinishi mumkin. O'zbekiston ta'lim tizimida ham adabiyot asosiy fan sifatida maktab darsliklariga kiritilgan va ular boshlang'ich, o'rta va yuqori sinflarida o'tiladi va o'ziga xos vazifa bajaradi. Masalan, boshlang'ich maktablarda maqsad – bolalarga ravon

o'qishni o'rgatish, mazmun esa shunga mos ravishda shakllanadi va bolani yoshiga mos manbalar tanlab olinadi.

Adabiyotlar tahlili. Bugun adabiyot darsliklari yangilanyapti va metodikada o'zgarishlar sezilyapti. Adabiyot o'qitish metodikasi, umuman adabiyot darslarini o'tish yuzasidan tadqiqotlar olib borgan Chex olimasi Ludmila Lederbuchova (Západočeská universiteti, Plzeň) ta'kidlashicha, adabiyot o'qitish jarayonida badiiy matnning ikki asosiy funksiyasi bor ekanligini ko'rsatib o'tadi va bular: mazmuniy va estetik [2]. Olimaning fikricha, adabiyot o'qitish jarayonida ko'zlangan maqsad faqatgina o'qituvchining didaktik fikrlashini oshirishgina bo'lib qolmay, mustaqil badiiy asar o'qish o'quvchiga estetik tajriba taqdim etish va badiiy asarni hayotiy reallik bilan ham bog'lay olish hamdir. Bizga ma'lumki, adabiyot so'z san'ati sifatida qadrlanadi, lekin uni tarkibi bevosita tarix bilan, din bilan, xalqlar tafakkuri bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Shularni hisobga olib qaraydigan bo'lsak, o'qitish faqatgina tarixiy-biografik kontekstlarni o'rgatish emas, balki so'z san'ati ta'limi sifatida qabul qilishimiz to'g'ri bo'ladi, o'qituvchilardan talab qilinadigan narsa esa badiiy matnning mazmunini talabalarga tayyor holda berish emas, balki ularni matni o'qish va tushunishga jalb qilishdan iboratdir.

Professor Mok Soon Sang o'z ilmiy ishlaridan birida ta'kidlaganidek, adabiyot o'qitishda qo'llaniladigan yondashuvlar o'quvchilarning darsdagi faol ishtirokini ta'minlaydi hamda ularning o'rganish jarayoniga yordam beradi. Shu boisdan, adabiyotni o'qitishda bir nechta yondashuvlar bor: ma'lumotga asoslangan, axloqiy-falsafiy, shaxsiy munosabatga asoslangan va tilga asoslangan yondashuvlar [1]. Ushbu yondashuvlarga asoslangan holatda darsni o'tish va darsliklarni yaxshi yaratilganligi, o'qituvchi ijodkorligi talab etilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada adabiyot fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar samaradorligini aniqlash maqsadida nazariy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Jumladan, ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni o'rganish, qiyosiy-tahliliy metod asosida an'anaviy va innovatsion adabiyot o'qitish yondashuvlarini solishtirish amalga oshirildi. Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlili orqali adabiyot ta'limida o'quvchi markazli yondashuvining afzalliklari yoritildi, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari qo'llanilib, xulosalar chiqarildi.

Tahlillar va natijalar. Abdurauf Fitrat "San'at lug'atda hunar demakdirkim, bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir" – deb yozgan edi. Bir qarashda Fitrat "san'at" so'zining ma'nosini, san'atning mohiyatini jo'nlashtirayotgandek ko'rinishi mumkin. Biroq olim "yaxshi" so'ziga ayri-ayri urg'u berayotgani, unga katta ma'no yuklayotgani seziladi. Tilimizda ishlatiluvchi "san'at" so'zining ma'no qirralari ancha keng. Masalan, "rassomlik san'ati", "kulollik san'atini egallamoq", "yuksak san'at bilan ishlangan" kabi birikmalarining har birida san'at turli ma'no qirralarini ifodalaydi. Shunga qaramay, ularda "san'at" so'zi ifodalayotgan ma'no qirralarini birlashtiruvchi umumiy

nuqta mavjudki, bu mazkur soʻzning har uchala holda ham “goʻzallik”, “mahorat”, “did” tushunchalari bilan bogʻliqligidir.

Demak, goʻzallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi sanʼatga aloqador. Shu nuqtai nazardan adabiyotni soʻz sanʼati sifatida bilamiz. Sanʼat bu shaxsga bogʻlangan ifodadir. Adabiyot esa soʻz orqali ifodalangan sanʼat boʻlib, tasvirlar va voqealar matnlar orqali yetkaziladi. Shu bois, adabiyot maktab fani sifatida ifodaviy fan hisoblanadi, ifodaviylik esa ijodkorlik va yaratuvchanlikni anglatadi. Biroq oʻzbek taʼlim tizimida amaldagi adabiyot darslari hanuz bilimga, yaʼni faktlar va ularning yod olinishi, maʼlum bir qolipga asoslangan fan sifatida qolmoqda, unda ijodga ajratiladigan joydan koʻra adabiyotshunoslik ustunlik qilmoqda. Bilimga yoʻnaltirilganlik bilan ifodaviylik oʻrtasidagi asosiy farq esa kitobxon-oʻqirmanning mazmuniy bilimlarni qanday egallashida namoyon boʻladi.

Adabiyot oʻqitish metodikasining innovatsion asosi tajriba orqali oʻquvchi bilan matnni talqin qilish oʻrtasida vositachilik qilishni bildiradi. Bu jarayon matnni oʻqish (oʻquvchilarning oʻzlari mustaqil oʻqishi) va matn bilan bogʻliq boʻlgan hissiy va ijodiy faoliyat ustuvor oʻrin tutishi kerak.

Innovatsion konsepsiya oʻquvchi va oʻqituvchi ijodkorligidan ilhomlansada, adabiyot tarixidan va nazariyasidan maʼlum darajada bilim oʻzlashtirishni istisno qilmaydi. Real oʻquv dasturida bu komponentlarning muvozanati adabiyotni estetik taʼlim sifatida taqdim etishga yordam beradi. Anʼanaviy adabiyot oʻqitish konsepsiyasi asosan adabiyot haqidagi bilimlarga, faktlar va maʼlumotlarni yod olishga qaratilgan boʻlsa, innovatsion konsepsiya bunga qoʻshimcha ravishda sanʼatni shaxsiy tajribada boshdan kechirishga, yaʼni oʻqish va ijod qilishga yoʻnaltiriladi.

Anʼanaviy adabiyot oʻqitish yondashuvi aniq bir qolip shaklida xarakterlanadi. Unda oʻquvchilar passiv boʻlib, matnning syujeti, muallifning hayoti va asarlardan biri yoki bir nechtasining oddiy talqini bilan tanishtiriladi.

Adabiyot oʻqitishda anʼanaviy usul	Adabiyot oʻqitishda innovatsion usul
Matn – yordamchi vosita	Matn – estetik va taʼlimiy vosita
Rasmiy tafakkur	Funksional tafakkur
Oʻquvchilar passiv	Oʻquvchilar faol
Mazmuniy xususiyatga eʼtibor	Mohiyatga eʼtibor
Tarixiy bilimlar ustun	Nazariy yoki teng ulushdagi bilimlar
Aniq faktlarga urgʻu	Bilim va tasavvurga urgʻu

Adabiyot darslaridagi ijodiy ifoda oʻquvchilarni har tomonlama tarbiyalashga hissa qoʻshishi mumkin. Ijodiy mahsulot koʻplab shakllarda amalga oshirilishi mumkin: matnlar bilan ijodiy ishlash, ularni talqin qilish, hattoki didaktik oʻyinlar orqali. Ijodiy ifodaviylik adabiyot darslarining maqsadlari sifatida oʻqish, bilim olish va ijodni maqsadli va tizimli ravishda amalga oshirishga xizmat qiladi deya qaraladi.

Adabiyot o'qitish jarayoni 2 xil yondashuv asosida shakllantiriladi va buni an'anaviy va innovatsion adabiyot o'qitish metodikasi deya atash mumkin:

Xulosa. Maqolaga xulosa qiladigan bo'lsak, adabiyot o'qitishning innovatsion konsepsiyasi yaratish va asosiy markazda o'quvchi bo'lgan ta'lim yondashuvlariga suyanadi. Shu sababli ham asosiy e'tibor mazkur fanni o'quvchilar, ya'ni o'quvchilarning o'zi, kitobxonlarga qaratilgan.

Farzandlarini har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad qilgan har bitta xalq uchun adabiyot buning samarali vositasi hisoblanadi. Shu sababli ham adabiyot o'qish va o'qita bilish juda muhim jarayon hamda ta'limning tojidir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mok S. S. Educational psychology & pedagogy: Learner and learning environment. – Kuala Lumpur: Pelanduk Publications, 2008. – 268 p.
2. Lederbuchová L. Literatura ve škole. Četba žáka a didaktická interpretace uměleckého textu v literární výchově na 2. stupni základní školy a v odpovídajících ročnících víceletého gymnázia. – Plzeň: Západočeská univerzita, 2010. – 188 s.
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/adabiyot-yashasa-millat-yashar>
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/abdulla-qahhor-adabiyot-va-hayot-haqida>

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934